



## YANGI O'ZBEKISTONNING SHAROITIDA ADLIYA VAZIRLIGI YURIDIK TEXNIKUMLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Jalilov Nodirbek Komil o'g'li,

[jnbek93@gmail.com](mailto:jnbek93@gmail.com)

Toshkent davat yuridik universiteti

Uzluksiz ta'lif boshqarmasi

boshlig'ining o'rinnbosari

### ANNOTATSIYA

Maqolada Adliya vazirligi yuridik texnikumlari tashkil etilish faoliyati, yuridik texnikumlarning qabul jarayonlari, yuridik texnikumlarda o'qish jarayonini tashkil etilishi, bitiruchilarning oliy ta'lif bilan qamrovi, ularning bandlik masalasi, shuningdek rivojlargan xorijiy davlatlaring tajribasi va institutsional asoslarini shakllantirishga oid masalalar ilmiy tahlil qilingan hamda bu borada tegishli takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: **yuridik texnikum, xorijiy tajriba, integratsiya, bandlik, 2+2 tizimi, 1+3 tizimi, 3+1 tizimi, kampus, ta'lif dasturlari, qabul jarayoni, bakalavriat, takliflar, kollej.**

Hozirda Yangi O'zbekiston sharoitida "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan ustuvor tamoyil asosida islohotlar davom etilmoqda. Ushbu ezgu maqsadlar asosida xalqimiz yangidan-yangi istiqbollar, kelgusi muhim yo'nalishlar belgilab berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-sod "Professional ta'lif tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasida Ta'lifning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lif tizimi tashkil etildi.



Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish, ularning huquqiy maqomini oshirish, ta'lif sifatini xalqaro darajaga olib chiqish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq, o'rta bo'g'in huquqshunos kadrlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib, yuridik texnikumlarning oliy ta'lif bilan qamrov darajasini oshirish, bitiruvchilarining bandlik masalasini hal etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yuridik texnikumlarning nufuzi va jozibadorligini oshirish, qabul tizimini takomillashtirish, bitiruvchilar bandligini ta'minlash, oliy ta'lif bilan integratsiya jarayonini yanada jadallashtirish maqsadida bir qator rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi o'rganish lozimdir.

Xususan, 1960-yillardan boshlanib, hozirda eng ommalashayotgan o'qitish tizimlaridan biri "2+2" yoki, "1+3 (3+1)" hisoblanadi. Bu borada AQSh, Kanada, Germaniya, Gruziya, Rossiya va Singapur davlatlarida ham ushbu tizim mavjud bo'lib, o'z samarasini bermoqda.

Ushbu tizimlarga ko'ra, o'qish dastlab ikki yil davomida kollejda, so'ngra qolgan ikki yil oliy ta'lif tashkilotida bo'lib o'tishini bildiradi. Bu bilan talaba 4 yil ichida ham o'rta professional ma'lumotga, ham oliy ma'lumotga ega bo'lgan holda diplomni oladi.

Shuningdek, kollejda bir yil o'qib, kollej reytingida eng yaxshi ko'rsatkich qayd etgan talabalarning kelishuvga ko'ra universitetlarda 2-kursdan boshlab o'qishni davom ettirish imkoniyati ham mavjud. Bu tizim esa "**1+3**" deb nomlanadi.

Amerika oliy ta'limga binoan talabalar bakalavr darajasini olish uchun so'nggi ikki yil davomida kollejdan universitetga o'tishda tegishli umumiyligi ta'lif talablarni bajarishlari, shu jumladan jamoat kollejida o'qib, undan keyin universitetga o'tishlari mumkin. Bunda ular kollejdan yuqori kurslarda belgilangan talablarni bajarishlari bilan bakalavr darajasini olishlari mumkin.

Bunday yondashuv odatda "**2+2**" deb nomlanib, bakalavr darajasi uchun zarur bo'lgan barcha kurslarni tugatish uchun to'rt yildan ko'proq vaqt sarflash lozim.

Misol uchun, AQShning Kaliforniya shtatida joylashgan Santa Ana kollejida **2+2** o'qitish tizimi mavjud bo'lib, bunda o'quvchilar birinchi ikki yilni jamoat kollejida san'at yoki biror bir fan yo'nalishlarida tahsil oladi va keyingi 2 yilni ta'lif yo'nalishiga mos ravishda tegishli oliygohda davom ettirgan holda bakalavr darajasiga ega bo'ladi. Ushbu kollejning A (yuqori) darajadagi dasturi tamomlanganidan so'ng, talaba Kaliforniya



shtatidagi 10 ta universitet, jumladan UC Irvine, UC Los Angeles, UC Berkeleyda bakalavr darajasini tugatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, AQSh joylashgan DuPage kolleji bakalavriat dasturlarini arzon narxlarda va uzlusiz yo‘l bilan taklif qilish uchun taniqli mahalliy universitetlar bilan hamkorlik qiladi. Mazkur kollejda o‘qish uch yil va hamkor oliv ta’lim muassasasida esa bir yilni tashkil etiladi.

Ushbu tizimning qulayliklari:

- o‘quvchilar tomonidan uchinchi va to‘rtinchi kursdan boshlab o‘qishni universitet kampusida davom ettirish;
- tajribali universitet o‘qituvchilaridan ta’lim olish;
- kollejlardan bitiruvchilarini bandligiga ko‘maklashish;
- ertaroq kasb tanlash va jamiyatga o‘z o‘rniga ega bo‘lish.

Shuningdek, Kanada davlatida milliy va xalqaro talabalar o‘qishining dastlabki ikki yili jamoat kollejida, so‘ngra oliv ta’lim tashkilotlarida davom ettiriladi. Mamlakatda 1200 ga yaqin jamoat kollejlari mavjud bo‘lib, ushbu kollejlardan tegishli universitetlar bilan o‘zaro integratsiyalashtirilgan.

Kanada 2+2 o‘qitish tizimiga ko‘ra, talabalar kollejni bitirgach, ularga oradan bir qancha vaqt o‘tsa ham ushbu tizim imkoniyatlaridan foydalangan holda universitetda o‘qishni davom ettirish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, Gruziya davlatining ta’lim tizimiga asosan iqtisodiyot mutaxassisligi bo‘yicha bakalavr darajasiga ega bo‘lishni rejorashtirgan barcha abituriyent dastlab Terry college of Businessdagi biznes yo‘nalishlariga qabul qilinishi, odatda ikkinchi kursning ikkinchi semestrida maxsus ta’lim sohalariga murojaat qilinishi nazarda tutilgan. Bu borada talabalar tomonidan ariza topshirishdan oldin kollejnning asosiy imkoniyatlari va istiqbolli talabalar manbalari o‘rganilishi zarurati mavjud.

Rossiya davlatida joylashgan reyting ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng yuqori o‘rinlarda turuvchi Chelyabinsk yuridik kolleji hamda Oltoy iqtisodiyot kollejida o‘quvchilar 9-sinfni yoki 11-sinfni bitirgandan so‘ng qabul qilinadi. 9-sinfdan qabul qilingan kollej o‘quvchisi 3+1 tizimida, 11-sinfdan qabul qilingan kollej o‘quvchisi esa 1+3 tizimida o‘qishni oliv ta’lim bilan integratsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Germaniyada o‘rta bo‘g‘in ta’lim tashkilotlari “Studienkolleg” deb nomlanib, ularda o‘qitish asosan 3+1 tizimida amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Bunda



asosan kollej o‘quvchilari 2 yil kollejda o‘qib, bir yil to‘liq amaliyotga yuborilishi hamda yo‘nalish bo‘yicha tegishli imtihonlardan o‘tib, universitetlarning oxirgi kursidan o‘qishni davom ettirishi mumkin. Natijada o‘quvchilar 4 yil ichida 330 ta nemis professional mutaxassisliklaridan bir qanchasini olishlari mumkin.

Singapurda 1995-yildan boshlab ayrim texnikumlarga 2+2 o‘qitish tizimi joriy etilgan bo‘lib, dastlab bu davlat universitetlarida amalga oshirilgan. Shundan so‘ng, ushbu tashabbus o‘z samarasini berib, boshqa barcha davlat va nodavlat universitetlarida yo‘lga qo‘ylgan.

Hozirda 2+2 tizimi bo‘yicha talabalar soni ikki barobarga oshgan (abiturientlar umumiy sonining 65 foizini tashkil etadi). Shu bilan birga, texnikumlar ta’sirchan zamonaviy kampuslarga ega bo‘lib, 150 dan ortiq turli xil ta’lim dasturlarini taklif etmoqda.

Bundan tashqari, o‘quvchilar 12-sinfni bitirganlaridan so‘ng Singapur Politexnika kollejiga o‘qishga qabul qilinadi. Kollejda o‘qish muddati 3 yil bo‘lib, har bir kurs yakunida hamkor oliygochlarga o‘qishga qabul qilish uchun test sinovlari o‘tkaziladi. Misol uchun, talaba kollejning 1-kursini bitirgach, hamkor oliy ta’lim tashkilotlaridan biriga kirish sinovlaridan o‘tgan taqdirda, 2-kursdan o‘qishini davom ettirish huquqiga ega bo‘ladi, shu bilan birga, keyingi kurslarda ham ushbu imkoniyatdan foydalanish huquqi beriladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha sohalardagi islohotlar kabi ta’lim sohasida jiddiy ijobiy o‘zgarishlar yoshlarimizga keng imkoniyatlar yo‘lini ochmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi 705-sон qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilarini “yurisprudensiya” mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi oliy ta’lim tashkilotlari bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizom hududiy adliya organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari bitiruvchilariga yo‘llanmalar berish, abituriyentlarni “yurisprudensiya” mutaxassisligi bo‘yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi davlat oliy ta’lim tashkilotlari bakalavriatiga test sinovlarisiz yakka tartibda suhbat o‘tkazish orqali bakalavrlni tayyorlashning maxsus uch yillik dasturi bo‘yicha o‘qishga qabul qilish hamda o‘qish tugagandan so‘ng oliy ta’lim tashkilotlari bakalavriati bitiruvchilarining taqsimotga muvofiq uzluksiz ishlab berishini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Shunga ko‘ra, 2022-yilda 51 nafar yuridik texnikum bitiruvchilari Toshkent davlat yuridik universitetiga qabul qilingan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi 17-sон qarori bilan tasdiqlangan Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim



muassasalarining bakalavriat ta'lismi yo'naliishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni o'z sohasiga mos bakalavriat ta'lismi yo'naliishlariga kirish imtihonlarisiz, yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lismi muassasalarining 2-bosqichidan o'qishini davom ettirish uchun qabul qilish tartibini belgilaydi.

Ushbu hujjat bo'yicha 2022-yilda birgina 14 ta yuridik texnikum bitiruvchilarining 68 nafari tegishli oliy ta'lismi tashkilotlariga qabul qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, o'rta maxsus professional ta'lismi bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, yoshlarning o'zini o'zi rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida, texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan, ammo til bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro sertifikatga ega bo'lмаган, oliy ta'limga bakalavriat yo'naliishiga umumiy tartibda, test sinovlari orqali imtihon topshirish istagida bo'lgan texnikum bitiruvchilarini, agar ular kirish imtihonlarida yetarli ball to'play olsa 2-bosqichdan qabul qilish tartibini joriy etish o'rta maxsus professional ta'lismi bosqichida o'qish istagida bo'lgan talabgorlar sonining oshishi orqali mehnat bozorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirgan bo'lar edi.

Shu o'rinda texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlayotgan o'quvchilar uchun o'z ta'lismi yo'naliishiga mos oliy ta'lismi muassasalariga nafaqat suhbat asosida, balki test sinovlari orqali 2-bosqichdan qabul qilish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq.

Bu esa o'z navbatida, professional ta'lismi tizimida tahsil olayotgan o'quvchilarning oliy ta'limga qamrovini kengaytirishga sabab bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, sohada samarali tizimni yo'lga qo'yish va yuridik texnikumlarning maqomini oshirish, bitiruvchilarni bandligini ta'minlash hamda ularning oliy ta'lismi bilan qamrovini oshirish maqsadida yuridik texnikumlarga kirish uchun test sinovlarini bekor qilish hamda 2+2 yoki 1+3 (3+1) tizimini (test sinovlari yoki suhbat asosida) joriy etish maqsadga muvofiq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI



1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b
2. BMT yuristlarning roliga oid Asosiy tamoyillari, yuqorida belgilangan, Preamble. Mazkur mavzuga tegishli boshqa hujjatlar: Yevropa Kengashining Advokatlikfaoliyatini oshirish erkinligi to‘g‘risida a’zo davlatlar vazirlari qo‘mitasining R (2000) 21-sonli tavsiyasi va Afrikada ishni sudda adolatli ko‘rib chiqish va huquqiyyordam masalalar bo‘yicha tamoyillar va boshqaruv tamoyillar, I tamoyil.
3. Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitaning Ozarbayjon bo‘yicha yakuniy mulohazalari, BMT hujjati CCPR/CO/73/AZE, 14-p.
4. Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mitaning Liviya Arab Jamahiriysi bo‘yicha yakuniy mulohazalari, BMT hujjati CCPR/C/79/Add. 101, 14-p.
5. M.X.Rustamboev, U.A.Tuxtashova. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati/Darslikyu Toshkent, ILM ZIYO, 2021 y. 81b.